

**Komplayens xizmati tomonidan 2021-yil davomida  
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

**I. Tashkiliy masalalar.**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o‘rinlarda - kombinat*)ning 2021-yil 21-aprelda tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasi ko‘ra, Kuzatuv kengashi tarkibida “Komplayens xizmati” tashkil etilgan.

2021-yil 13-avgustda Kuzatuv kengashi tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, ya’ni Komplayens xizmati boshlig‘i tayinlandi.

2021-yil 6-dekabrda Komplayens xizmatining Nizomi va **15 ta** shtat birligidan iborat (*shundan 7 tasi korxonalarda*) tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

Kombinatning 2021-yil 23-dekabrdagi buyrug‘i bilan ochiq tanlov hamda sinov tadbirlari asosida Komplayens xizmatiga ishga qabul qilish tartibi qabul qilindi.

Vakant lavozimlar bo‘yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Kombinatning rasmiy veb-saytiga hamda telegram ijtimoiy tarmoqlariga (2021-yil 24-dekabrdan 2022-yil 6-yanvargacha) joylashtirilgan e’lon joylashtirildi.

**II. Amalga oshirilgan ishlar.**

Kombinatning 2021-yil 23-dekabrdagi buyrug‘i bilan “**Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati**” qabul qilindi.

Adliya vazirligida 2021-yil 24-fevralda 3287сон bilan ro‘yxatga olingan Nizom talablari asosida ichki (*buyruq, farmoyish, nizom*) hujjatlarni korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi tashkil etildi. Bundan tashqari, xaridlar sohasida “Potensial tovar yetkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash Tartibi”ni qabul qilinishida ishtirok etilib, 2021-yilda **24 ta** xarid hujjatlari ko‘rib chiqildi.

Kombinatning rasmiy veb-saytida “**Korrupsiyaga qarshi kurashish**” va “**Ochiq ma’lumotlar**” bo‘limlari yaratildi.

“9-dekabr xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” mavzusida maqola tayyorlanib, “Konchilar hayoti” gazetasi va rasmiy veb-saytga joylashtirildi.